

# DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

**2025**

**5 -SON**

(+998) 50-005-45-69

[https://t.me/demografiya\\_mehnatbozori](https://t.me/demografiya_mehnatbozori)

[demografiya\\_mehnat\\_bozori@mail.ru](mailto:demografiya_mehnat_bozori@mail.ru)

**DEMOGRAFIYA  
VA MEHNAT  
BOZORI**

**2025-yil  
5-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal  
Электронный научно-популярный  
журнал  
Electronic popular science journal

**BOSH MUHARRIR:**

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

**MUHARRIR:**

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

**TAHRIR HAY' ATI:**

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,  
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,  
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,  
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,  
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,  
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,  
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,  
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor  
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.  
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor  
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor  
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)  
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor  
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)  
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD  
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent  
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD  
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD  
Asqarova Muhabbat Ibraximovna  
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                                           |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Усманов Анвар Саидмахмудович</b><br><i>Устойчивое развитие и выравнивание уровня жизни населения</i>                                                                                                                   | 4   |
| <b>Usmanov Anvar Saidmaxmudovich,</b><br><b>Xamdamov Shoh-Jaxon Rahmat o'g'li</b><br><i>O'zbekiston sanoatidagi uglerod izini qisqartirish</i>                                                                            | 16  |
| <b>Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,</b><br><b>Xalikchaeva Sadokat Ilxomjonovna</b><br><i>O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining rivojlanish bosqichlari</i>                    | 30  |
| <b>Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna,</b><br><b>To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li</b><br><i>Janubiy Koreya davlatida uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati hamda uni o'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari</i> | 44  |
| <b>Tojiyeva Zulxumor Nazarovna,</b><br><b>Qurbonov Paxlavon Rustamovich</b><br><i>O'zbekiston respublikasida shaharlar tizimi shakllanishi va hududiy urbanistik tarkibdagi o'zgarishlar</i>                              | 60  |
| <b>Musayev Bekzod Murodovich</b><br><i>Sirdaryo viloyati shaharlari aholi soni dinamikasi va tarkibining hududiy xususiyatlari</i>                                                                                        | 74  |
| <b>Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi</b><br><i>Fintech va mobil banking platformalarida kiberxavfsizlik darajasini baholashning ilg'or yondashuvlar</i>                                                                    | 83  |
| <b>Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li</b><br><i>Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ahamiyati</i>                            | 93  |
| <b>Bahriddinova Muazzam Azam qizi</b><br><i>O'zbekiston hududlarining demografik tahlili</i>                                                                                                                              | 103 |
| <b>Umarov Omonjon Muxammad o'g'li</b><br><i>Yosh avlodni madaniy merosni saqlash va turizmga faol ishtirok etishga jalb qilish mexanizmlari</i>                                                                           | 115 |
| <b>Solixova Xumora Xasan qizi</b><br><i>Soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning roli</i>                                                                                              | 125 |
| <b>Мухамадиева Кубриё Баходировна</b><br><i>Цифровая трансформация демографических исследований</i>                                                                                                                       | 135 |
| <b>Shoydulova Maftuna Zafar qizi</b><br><i>O'zbekiston korxonalarida kadrlar boshqaruvida yoshlar va ayollarning rolini kuchaytirish strategiyalari</i>                                                                   | 142 |

## SOLIQ YIG'UVCHANLIGINI OSHIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATI VA IJTIMOY ONGNING ROLI

**Solixova Xumora Xasan qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Moliya va turizm kafedrası o'qituvchisi

Orsid:0009-0003-8524-1427

[xumorasolixova@gmail.com](mailto:xumorasolixova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning o'rne ilmiy jihatdan o'rganildi. O'zbekiston tajribasi Skandinaviya mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Singapur tajribalari bilan taqqoslab tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolarning soliqqa bo'lgan ishonchi va faol jamoatchilik ishtiroki soliq yig'uvchanlik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni moslashtirish va soliq madaniyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** soliq yig'uvchanligi, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy ong, soliq madaniyati, Skandinaviya tajribasi, Koreya Respublikasi, Singapur, O'zbekiston, soliq tizimi, ishonch.

## РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ИНФОРМИРОВАННОСТИ В ПОВЫШЕНИИ СОБИРАЕМОСТИ НАЛОГОВ

**Солихова Хумора Хасан кизи**

Преподаватель кафедры финансов и туризма

Термезского университета экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье научно исследуется роль общественного контроля и общественного сознания в повышении собираемости налогов. Опыт Узбекистана сравнительно проанализирован с практикой скандинавских стран, Республики Корея и Сингапура. Результаты исследования показывают, что доверие граждан к налоговой системе и активное участие общественности напрямую влияют на рост собираемости налогов. В статье разработаны научно-практические предложения по адаптации зарубежного опыта и повышению налоговой культуры в Узбекистане.

**Ключевые слова:** собираемость налогов, общественный контроль, общественное сознание, налоговая культура, скандинавский опыт, Республика Корея, Сингапур, Узбекистан, налоговая система, доверие.

## THE ROLE OF PUBLIC CONTROL AND SOCIAL AWARENESS IN INCREASING TAX COLLECTION

**Solixova Khumora Khasan qizi**

*Lecturer at the Department of Finance and Tourism  
Termez University of Economics and Service*

**Abstract.** *This article scientifically examines the role of public oversight and social awareness in improving tax collection. The experience of Uzbekistan is comparatively analyzed with the practices of Scandinavian countries, the Republic of Korea, and Singapore. The research results show that citizens' trust in the tax system and active public participation directly affect the increase in tax collection rates. The article develops scientific and practical proposals for adapting international experience and enhancing tax culture in Uzbekistan.*

**Keywords:** *tax collection, public oversight, social awareness, tax culture, Scandinavian experience, Republic of Korea, Singapore, Uzbekistan, tax system, trust.*

### **Kirish.**

Soliq tizimi davlatning moliyaviy mustahkamligini belgilovchi asosiy institutlardan biri bo'lib, uning samarali faoliyati davlat budjeti daromadlarining to'liqligini, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bois, soliq yig'uvchanlik darajasi nafaqat fiskal mexanizmlarning ishlash sifati, balki jamiyatdagi fuqarolik madaniyati, davlatga bo'lgan ishonch va ijtimoiy ong darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq to'lash jarayonini faqat majburiyat emas, balki ijtimoiy javobgarlik sifatida anglaydigan jamiyatlarda soliq tushumlari yuqori bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasida ijobiy aloqalar shakllanadi.

Zamonaviy davlatlar tajribasi, xususan Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur misolida soliq yig'uvchanlik darajasining yuqoriligi faqat soliq stavkalari va qonunchilikka emas, balki ijtimoiy psixologik omillarga ham tayanishini ko'rsatmoqda. Bunday mamlakatlarda fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchi yuqori bo'lib, soliqlarni o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida qabul qilishadi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati institutlarining kuchliligi soliq tizimining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish borasida ijobiy natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, soliq yig'uvchanlik darajasi hanuz optimal darajada emas. Norasmiy bandlik, soliqdan bo'yin tovlash holatlari va ijtimoiy ongning yetarli emasligi bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jamiyatda soliqqa nisbatan salbiy

stereotiplarning mavjudligi, davlatga bo'lgan ishonchning yetarli emasligi soliq majburiyatlariga sust yondashishga olib kelmoqda.

Mazkur maqolada soliq yig'uvchanligini oshirishda ijtimoiy ong va jamoatchilik nazoratining o'zni chuqur tahlil qilinadi. Dunyodagi ilg'or tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida soliq madaniyatini shakllantirish, fuqarolik faolligini kuchaytirish, shuningdek, soliq jarayonlarini ochiqalashtirish orqali fuqarolarning ishonchini mustahkamlash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, maqolada soliq tizimidagi ijtimoiy omillar bilan bog'liq muammolar statistik ma'lumotlar asosida yoritilib, ijtimoiy ong va fuqarolik nazorati kuchaytirilgan holatda soliq yig'uvchanlik darajasining oshishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar keltiriladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Soliq yig'uvchanligi, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ong bo'yicha ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va davlat hujjatlari o'rganildi.

O'zbekiston va ba'zi xorijiy mamlakatlar (Skandinaviya, Koreya Respublikasi, Singapur) tajribasi taqqoslab tahlil qilindi.

O'zbekistonning 2017–2023 yillar davridagi soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichlari asosida dinamik o'zgarishlar o'rganildi.

Soliq yig'uvchanlik darajasiga oid statistik ko'rsatkichlar orqali tendensiyalar aniqlangan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Soliq yig'uvchanligiga ta'sir etuvchi omillar ko'plab xalqaro va milliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan:

Musgrave, R.A. va Musgrave, P.B. (1989) o'zining "Public Finance in Theory and Practice" asarida soliq madaniyati va aholining soliqqa nisbatan ishonchi soliq yig'uvchanligining asosi ekanligini ta'kidlagan [1].

Bird, R., Martinez-Vazquez, J. va Torgler, B. (2014) soliq yig'uvchanligi va jamoatchilik ishonchi o'rtasidagi bevosita aloqani aniqlagan [2].

OECD (2022) "Revenue Statistics: Eurasia Edition" hisobotida soliq yig'uvchanlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda fuqarolarning soliq tizimiga nisbatan ijobiy munosabati va ishtirok darajasi yuqoriligi qayd etilgan [3].

Chowdhury, F. L. va Rasul, G. (2011) o'z tadqiqotlarida korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflik jamoatchilik nazoratining muhim tarkibiy qismlari ekanligini ko'rsatgan [4].

Andersen, S. C. (2018) "Trust in Government and Tax Compliance" ishida Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy ishonch va fuqarolik mas'uliyati soliq yig'uvchanligiga ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatgan [5].

Musayeva N. (2021) o'z tadqiqotida soliq madaniyati ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, fuqarolarning soliq tizimi bo'yicha huquqiy bilimi va ijtimoiy javobgarligini oshirish soliqlarning to'liq yig'ilishini ta'minlaydi degan xulosaga keladi[13].

Samatov M. (2022) jamoatchilik nazorati vositalarining, xususan blogerlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAVning soliq idoralariga bosim o'tkazish, faoliyatlarining monitoringi orqali soliqqa bo'lgan ishonchni oshirish imkonini taqdim etishini ta'kidlaydi. Torgler (2005) Lotin Amerikasi tajribasida jamoatchilik nazorati zaif bo'lgan jamiyatlarda soliq to'lashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi pastligini asoslab bergan[14].

Mahmudov Q. (2023) esa soliq tizimida shaffoflikni oshirish orqali fuqarolarda davlatga bo'lgan ishonch mustahkamlanishi, bu esa soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishga turtki bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [11]. Jahon bankining 2020-yilgi hisobotida esa soliq organlarining faoliyati va tushumlar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yuritish jamoatchilik nazoratining kuchayishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Xalqaro Soliq Konsalting markazi (2021) ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy ongni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va diniy-axloqiy qadriyatlarning ta'siri ham muhim hisoblanadi. Mishra va hammualliflar (2011) Hindiston tajribasida jamoatchilik ishtiroki va siyosiy iroda birlashganda bojxona va soliq to'lovlaridagi buzilishlar kamayishi, yig'uvchanlik ortishini tahlil qilgan[12].

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jamoatchilik ishtirokini oshirish va ijtimoiy ongni rivojlantirish natijasida yig'uvchanlik darajasi barqaror oshmoqda [6].

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ijtimoiy ong — bu jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, qadriyatlari, bilimlari, e'tiqodlari, axloqiy tamoyillari va siyosiy, iqtisodiy qarashlarining jamlanmasidir. Ya'ni, bu insonlarning jamiyatdagi hodisalar va jarayonlarga bo'lgan munosabati va ular haqida shakllangan fikrlar yig'indisidir.

Ijtimoiy ong — soliq yig'uvchanligining ichki, ko'rinmas lekin juda muhim omilidir.

Soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning ahamiyatini tahlil qilish uchun, avvalo, O'zbekiston va ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqdik. Shuningdek, O'zbekistonning 2017–2023 yillar oralig'idagi soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichlari dinamikasi va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy ong holatini baholovchi statistik ma'lumotlar ham tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi "Soliq siyosatini tubdan takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ular quyidagilardan iborat:

Soliq organlari faoliyatida axborot ochiqligi va shaffofligi tamoyillarini joriy etish.

Soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish va ularni soliq tizimidagi o'zgarishlardan xabardor qilish.

OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali soliq madaniyatini ommalashtirish.

**1-jadval**

**2017-2023 yillarda soliqlarning yig'uvchanlik holati[6]**

| Ko'rsatkich                                                         | 2017-yil | 2020-yil | 2023-yil | O'sish (%) |
|---------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|------------|
| Soliq yig'uvchanligi darajasi                                       | 78%      | 85%      | 92.4%    | +18.5%     |
| Aholining soliq tizimiga ishonch darajasi (so'rovnoma asosida)      | 52%      | 68%      | 79%      | +27%       |
| Soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan yuridik shaxslar ulushi | 74%      | 82%      | 89%      | +15%       |

Tahlil shuni ko'rsatdiki:

Soliq yig'uvchanlik darajasi jamoatchilik nazorati kuchli bo'lgan hududlarda (Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona viloyatlari) o'rtacha 12–15% yuqori bo'lmoqda.

Soliq organlarining faoliyati yuzasidan ochiq hisobotlar berib borilgan hududlarda fuqarolarning soliqqa bo'lgan ishonchi oshgan va natijada soliq to'lov intizomi yaxshilangan.

Soliq siyosati yuzasidan jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilingan hollarda, fuqarolar o'rtasida norozilik darajasi kamaygan va soliq to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilgan.

Misol uchun, 2021–2022 yillarda Toshkent shahrida joriy etilgan "Soliq masalalarida jamoatchilik monitoringi" dasturi natijasida soliqlarni o'z vaqtida to'lash ko'rsatkichi 7% ga oshgan.

Soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy ongni oshirishda quyidagilar muhim rol o'ynadi:

Maktablarda va universitetlarda moliyaviy savodxonlik darslari yo'lga qo'yildi.

Soliqlarning ijtimoiy infratuzilmadagi ahamiyati ommaviy axborot vositalari va mashhur blogerlar orqali yoritildi.

Ayrim hududlarda soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan fuqarolarga imtiyozlar taqdim etildi.

Natijada, so'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra:

2023 yilda fuqarolarning 79% soliqlarni to'lash jamiyat rivoji uchun zarurligini tan olgan (2017 yilda bu ko'rsatkich 52% edi).

2022 yilda o'tkazilgan so'rovda fuqarolarning 65% davlatning soliqlardan foydalanish bo'yicha ochiqqligidan qoniqish bildirgan (2018 yilda — 38%).

2-jadval.

**Soliq yig'uvchanlik va ijtimoiy ong darajasi**

| Mamlakat                                                 | Soliq yig'uvchanlik darajasi | Ijtimoiy ong (aholi ishonchi va soliqqa nisbatan madaniyat)               | Jamoatchilik nazorati tizimi                          |
|----------------------------------------------------------|------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| O'zbekiston                                              | 92.4% (2023)                 | O'rtacha darajada, oshish tendensiyasi bor                                | Yangi shakllanmoqda, faollik ortmoqda                 |
| Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya) | 97-99%                       | Juda yuqori; soliq to'lash — ijtimoiy burch sifatida qabul qilingan       | Mustaqil audit va fuqarolar monitoringi               |
| Koreya Respublikasi                                      | 96-97%                       | Yaxshi; soliqlarni to'lash jamiyatga xizmat qilish sifatida baholanadi    | Soliq to'lovchilar uyushmalari va onlayn monitoring   |
| Singapur                                                 | 98%                          | Yuksak; soliqlar rivojlanish va barqarorlik uchun asos sifatida ko'riladi | Elektron nazorat platformalari va fuqarolik ishtiroki |

*Manba: jadval muallif ishlanmasi*

Skandinaviya mamlakatlari dunyoda eng yuqori soliq yig'uvchanlik darajasiga ega (Shvetsiyada 2022 yilda YIMga nisbatan soliq tushumlari 44.1%, Daniyada 46.5%, Norvegiyada 39.5%). Bu raqamlar nafaqat soliq siyosatining qat'iyligi, balki aholining ijtimoiy ishonchi va fuqarolik ongi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Ushbu mamlakatlarda soliq to'lash — fuqarolik burchi sifatida qaraladi. Soliqlarni yashirish yoki ulardan qochish jamiyatda kuchli ijtimoiy salbiy qarashga ega. Shvetsiyada masalan, barcha fuqarolarning daromad deklaratsiyalari ochiq — ularni istagan fuqaro ko'rib chiqishi mumkin. Bu esa jamoatchilik nazoratining kuchli shaklidir.

Ta'lim tizimida maktab bosqichidan boshlab soliqlarning mohiyati, davlat xizmatlari va byudjet jarayonlari o'rgatiladi. Davlat xizmatlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, pensiyalar) bepul va sifatli bo'lgani uchun, fuqarolar soliqlarni o'z foydalari deb bilishadi. Soliq yig'uvchanlik darajasi doimiy ravishda yuqori. Ijtimoiy ong va davlatga bo'lgan ishonch o'zaro mustahkam bog'liq.

Janubiy Koreyada soliq yig'uvchanlik nisbatan pastdan boshlangan (2000-yillar boshida YIMga nisbatan 20-22%), ammo 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich

**\*\*28.3%\*\***ga yetdi. Bu o'sishga fuqarolarning ongli yondashuvi va raqamli soliq infratuzilmasi muhim hissa qo'shdi.

Koreyada davlat soliqqa oid ma'lumotlar va kompaniyalar orqali aholiga shuni doimiy eslatadi: "soliq to'laganingizda, siz infratuzilmani qurmoqdasiz, pensiyangizni kafolatlayapsiz." 2021-yilda Korea National Tax Service tomonidan "Taxpayer Rights Charter" ishlab chiqilib, har bir fuqaro o'zining soliq huquqlari haqida xabardor bo'lishi ta'minlandi.

Hamma savdo shoxobchalarida elektron kvitansiyalar majburiy, bu soliqdan qochishni kamaytiradi. "Haqiqiy vaqt soliq monitoringi" (real-time tax monitoring) orqali noqonuniy naqd pul aylanishi kamaygan.

Soliq madaniyati yuqori texnologiyalar va ijtimoiy xabardorlik orqali shakllantirilmoqda. Soliqlarga nisbatan ijobiy qarash kuchaygan.

Singapur YIMga nisbatan past soliq yukiga ega mamlakatlardan biri (2022-yil — 13.8%), biroq bu soliq yukining pastligi soliq yig'uvchanligining sustligi bilan emas, balki iqtisodiy samaradorlik va tartibga solingan soliq tizimi bilan bog'liq.

Singapurda davlat va fuqarolar o'rtasida "ijtimoiy kontrakt" mavjud: fuqarolar soliqlarni adolatli to'laydi, davlat esa o'z navbatida yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatadi. Davlat xodimlarining oyliklari yuqori va korrupsiyaga qarshi qat'iy chora-tadbirlar bor. Shuning uchun aholida davlatga nisbatan ishonch kuchli.

IRAS (Inland Revenue Authority of Singapore) — xalqaro miqyosda eng samarali soliq boshqarmalaridan biri.

IRAS butunlay elektronlashtirilgan xizmatlarga o'tgan. Soliq deklaratsiyasi, to'lovlar, auditlar, va hatto yuridik arizalar IRASning MyTax Portal platformasi orqali amalga oshiriladi. Bu orqali:

Soliq to'lovchilarning davlat bilan bevosita va tezkor aloqasi ta'minlanadi.

Byurokratiya va korrupsiya imkoniyati yo'qqa chiqariladi.

Har bir to'lov, chegirma, imtiyoz avtomatik tarzda raqamli hujjatlashtiriladi.

Ko'plab soliq to'lovchilar uchun IRAS avtomatik ravishda to'ldirilgan deklaratsiyalarni tayyorlaydi — bunda ish beruvchi, bank, moliyaviy tashkilotlardan olingan axborot asos sifatida xizmat qiladi. Bu esa xatoliklar va noqonuniy yashirishlar ehtimolini keskin kamaytiradi.

IRAS OECD tomonidan ishlab chiqilgan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) va CRS (Common Reporting Standard) kabi xalqaro soliq ma'lumot almashinuvi va shaffoflik standartlarini to'liq qabul qilgan. Shu bilan birga, Singapur FATF (Financial Action Task Force) standartlariga mos ravishda soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida nazorat qiladi.

IRAS doimiy ravishda aholining soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan kampaniyalar olib boradi, masalan:

"Taxpayer Education Programme";

"My Tax. My Responsibility" shiori ostidagi ijtimoiy roliklar;

Maktablarda soliqni tushuntiruvchi interaktiv dasturlar,

Bu kompaniyalar orqali fuqarolar soliqqa nafaqat majburiyat, balki ijtimoiy mas'uliyat deb qaray boshlashgan.

IRAS nafaqat soliq yig'ish samaradorligini oshirgan, balki Singapur fuqarolarida yuqori ijtimoiy ong, davlatga ishonch, va fuqarolik mas'uliyati hissini shakllantirgan. Bu boshqarma bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun namunaviy model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

AQShda soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichi nisbatan barqaror (2022-yilda YIMga nisbatan 27.1%), biroq norasmiy iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada mavjud (10% atrofida). IRS (Internal Revenue Service) ma'lumotlariga ko'ra, yillik soliq yo'qotishlar miqdori \$450 milliardga yetishi mumkin.

Ijtimoiy ongdagi farqlilik:

Yuqori daromadli va yuridik shaxslar soliq majburiyatlariga jiddiy yondashadi.

Past daromadli qatlamlarda soliqdan qochish holatlari ko'proq uchraydi — bunga ishsizlik, ijtimoiy nohaqlik va sog'liqni saqlash tizimidagi tengsizlik sabab bo'ladi.

IRS kuchli audit tizimiga ega, biroq siyosiy bosimlar, soliq imtiyozlari va boy qatlamlarning huquqiy yo'llar bilan soliqlardan qochishi — tizimning zaif tomonlaridan biri.

Germaniyada YIMga nisbatan soliq tushumlari 2022-yil holatiga ko'ra 38.1% bo'lib, Yevropa Ittifoqida yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bunda jismoniy shaxs daromad solig'i (max. 45%) va QQS (19%) asosiy rol o'ynaydi.

Soliq to'lash davlatga emas, jamiyatga xizmat qilish sifatida qaraladi.

Makroiqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy yordam tizimlarining sifatli ishlashi fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Davlat fuqaroga hisob beradi:

Har yili "Steuererklärung" (soliq deklaratsiyasi) topshirish orqali har bir fuqaro soliqlarning holati haqida aniq ma'lumot oladi.

Davlat "nima uchun bu soliqlar to'plandi va qanday ishlatilmoqda" degan axborotni e'lon qiladi.

Norvegiyada har bir fuqaro soliq majburiyatlari va davlat xarajatlari haqida muntazam ravishda axborot oladi, natijada soliq yig'uvchanlik darajasi 98% dan yuqori.

Singaporda soliq to'lovchilarga berilgan mukofotlar va soliq tizimidagi shaffoflik orqali fuqarolarning soliqqa sodiqligi oshirilgan.

Koreya Respublikasida onlayn platformalar orqali soliq to'lovchilarning real vaqtda monitoring imkoniyati yaratilgan.

Skandinaviya va Singaporda soliq tizimi fuqarolar uchun shaffof va adolatli ko'rinadi, shuning uchun ijtimoiy ong juda yuqori. Koreyada soliqlarni to'lash — iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish deb qabul qilinadi, aholi o'zini davlat

qurilishining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. O'zbekistonda ijtimoiy ong va jamoatchilik nazorati so'nggi 5 yilda faol rivojlanmoqda, biroq hali ham to'liq shakllanmagan segmentlar mavjud.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, aholining soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish va faol jamoatchilik nazoratini ta'minlash — soliq yig'uvchanlik darajasining asosiy omillaridan biridir.

### 3-jadval

#### Jamoatchilik nazorati usullari

| Mamlakat            | Jamoatchilik nazorati usullari                                                                | Natijalar                                                                   |
|---------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston         | Soliq organlari faoliyati bo'yicha ommaviy eshituvlar, ochiq hisobotlar                       | Soliq yig'uvchanlikda 18,5% o'sish (2017–2023)                              |
| Skandinaviya        | Mustaqil soliq ombudsmani, OAV orqali soliq sarflanishi haqida muntazam xabarlar              | Aholining soliqqa ishonchi 90% dan yuqori                                   |
| Koreya Respublikasi | Soliq to'lovchilar assotsiatsiyalari, onlayn shikoyat va takliflar platformasi                | Soliq yig'uvchanlikda yuqori barqarorlik, shikoyatlarning 70% tez yechiladi |
| Singapur            | E-soliq portallari, ochiq ma'lumotlar bazalari, soliqlar haqida xalqaro reytingda hisobdorlik | Minimal soliq qochirish holatlari, to'liq elektron monitoring               |

Skandinaviya va Singapurda jamoatchilik bevosita soliq siyosatini shakllantirishda ishtirok etadi.

Koreya va Singapurda raqamli platformalar orqali shikoyat va monitoring imkoniyati yuqori.

O'zbekistonda ochiq hisobot berish va jamoatchilik eshituvlari endi-endi ommalashmoqda, bu esa fuqarolarni soliqqa nisbatan ijobiyroq qarashga undamoqda.

#### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni umumlashtirish mumkin:

Jamoatchilik nazorati kuchli bo'lsa, soliqlarning shaffof va adolatli yig'ilishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy ongni rivojlantirish fuqarolarning soliqqa nisbatan munosabatini o'zgartirib, majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini oshiradi.

Soliq tizimining shaffofligi va davlatning soliq mablag'laridan oqilona foydalanishi soliq yig'uvchanlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun quyidagi xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Skandinaviya tajribasi: soliq mablag'lari sarflanishi haqida to'liq ochiqlik va jamoatchilikni doimiy xabardor qilish.

Koreya tajribasi: onlayn shikoyat va taklif platformalarini rivojlantirish va jamoatchilik assotsiatsiyalarini kengaytirish.

Singapur tajribasi: soliqlarni to'lashni rag'batlantirish uchun mukofot tizimlari va jamiyatga xizmat qilish motivlarini kuchaytirish.

Shu orqali O'zbekistonda ham soliq yig'uvchanlik darajasi va ijtimoiy ong yanada mustahkamlanadi.

### Adabiyotlar:

1. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill.
2. Bird, R., Martinez-Vazquez, J., & Torgler, B. (2014). Tax Effort in Developing Countries and High Income Countries: The Impact of Corruption, Voice and Accountability. *Economic Analysis and Policy*, 44(2), 195–202.
3. OECD. (2022). *Revenue Statistics: Eurasia Edition*. OECD Publishing.
4. Chowdhury, F. L., & Rasul, G. (2011). Governance and Tax Compliance. *International Journal of Public Administration*.
5. Andersen, S. C. (2018). Trust in Government and Tax Compliance. *International Review of Administrative Sciences*.
6. State Tax Committee of Uzbekistan. (2023). *Annual Performance Report*.
7. World Bank. (2019). *Doing Business: Reforming to Create Jobs*. Washington, DC.
8. Torgler, B. (2007). *Tax Compliance and Tax Morale: A Theoretical and Empirical Analysis*. Edward Elgar Publishing.
9. Alm, J., & Torgler, B. (2011). Do Ethics Matter? Tax Compliance and Morality. *Journal of Business Ethics*.
10. Transparency International. (2022). *Corruption Perceptions Index 2022*.
11. Mahmudov, Q. (2023). Soliq solish tizimida shaffoflik va jamoatchilik nazoratining ahamiyati. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(1), 45–51.
12. Mishra, A., Subramanian, A., & Topalova, P. (2011). Policies, enforcement, and customs evasion: Evidence from India. *Journal of Public Economics*, 95(7–8), 500–512. <https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2010.11.008>
13. Musayeva, N. (2021). Soliq madaniyatining shakllanishi va uni oshirish yo'llari. *Soliq va Bojxona Jurnal*, (4), 19–25.
14. Samatov, M. (2022). Soliqlarning to'liq yig'ilishida fuqarolik jamiyatining roli. *O'zbekiston Iqtisodiyoti va Biznes Jurnal*, (3), 58–64.
15. Torgler, B. (2005). Tax morale in Latin America. *Public Choice*, 122(1–2), 133–157. <https://doi.org/10.1007/s11127-005-4203-4>

